



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning
20__ - 20__ - o'quv yiliga 9 - sinflar uchun
I chorak adabiyot fanidan

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf adabiyot fanidan I chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Ruhiy kamolot vositasi	1		
2.	“Alpomish” dostonini o‘qish	1		
3.	“Alpomish” dostonini o‘qish	1		
4.	“Alpomish” dostonini o‘qish	1		
5.	“Alpomish” dostoni haqida	1		
6.	Insho	1		
7.	Nazorat ishi-1	1		
8.	Usmon Azim. “Baxshiyona” turkumidan she’rlar	1		
9.	Usmon Azim. “Karvon ko‘rdim...” va “Tong titraydi...” she’rlari	1		
10.	Usmon Azim. Nazariy ma’lumot. She’riy nutq va uning vositalari.	1		
11.	Asqad Muxor. “Chinor” romanidan parcha	1		
12.	Asqad Muxor. “Chinor” romanidan parcha	1		
13.	Asqad Muxor. “Akbarali qissasi” romanidan parcha	1		
14.	Asqad Muxor. “Akbarali qissasi” romanidan parcha	1		
15.	Asqad Muxor. “Akbarali qissasi” romanidan parcha	1		
16.	Adabiy laboratoriya	1		
17.	Nazorat ishi-2	1		
18.	“Zukko kitobxon” tanlovini o‘tkazish	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ruhiy kamolot vositasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga munosabat bildirish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

ADABIYOT NADIR?!

Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir. Har sinf, xalqning o'ziga maxsus ohangi, o'ziga ta'sir qiladurg'on zori bo'lur. Mana shul muhit bo'shlig'inda bo'lgan qat'iy to'lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko'b achchiq ta'sir etmagindan odamning ko'nglida o'zi bilmasdan o'rnashub qolg'on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg'on qayg'ulanmak va yo ko'krak kerib ko'b dam olurday oh urmaklar - hammasi ko'ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to'lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba'zi vaqtda shodlikdan kulur va ba'zi vaqtda ko'z yoshin to kib yig'lar, oh tortar. Odamning mundog' har xil kayfiyatga kirub turmog'i o'z ixtiyori ila bo'lmay, balki maishati yo'lida har vaqt uchrab turadurg'on falokatning anga ba'zi vaqtda zulm ko'rsatmog'i va ba'zi vaqtda bir yaxshilik ko'rsatub suyundirmog'idin kelub - yaxshi ko'rganda suyunib, yomonliq ko'rganda yig'lab - shundog' bo'lub ikki turli o'zgarub turar, ba'zi vaqtda falak bir odamni qayg'uga solar, ul o'zi tushunib, o'ylab turub, oh tortub yig'lar. Bu hasratlarni o'z ichiga sig'dirolmas. Birovga aytsa, "Voy bechora" deyurmukin, deb o'z qayg'usini birovga aytmakka tilar. To'p-to'g'ri aytganda u qadar ta'sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta'sir qilar. Mening bir oshnamning o'ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtda maktub kelar, maktubda alarning ko'rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

*Gullar bila pok qayg'uli mahzun boqurdi,
Ko'z yoshlarimiz to'xtamay tun-kun oqurdi.*

Mana shuni o'qub, albatta, bir ta'sir ila alarning qayg'usiga qo'shulurmiz. Bir bola uxlamasa,

alia aytarlar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur. Eski bobolarining bir ma'shuqa uchun Qoshg'ar taraflariga yayov borganini va yo'lda o'g'rilar tarafidin o'lturulgani g'oyat yaxshi ohang bilan aytilur. Ul vaqtda bola ta'sirindan uxlab ketar. Shunga o'xshash o'zining shavkatva g'ayrati ila zamonasida butun dunyoni havorl va dahshatga solg'on jahongirlarning o'tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko'rsa va eshitsa, har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo'linur. Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g'ayrat – barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kiriangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa - millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'on millat o'zini inqirozda ekanun bildirur...

Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan qaralgan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlami tozalaydirg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirdg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir.

Endi, ey qardoshlar! Adabiyot o'quyluk.

Adiblar yetishdirayluk, "adabiyot kechalari" yasayluk.

Ruh, his-tuyg'u, fikr, ong va o'y olayluk, bilayluk...

Yuragimiz kundan kun toshdan ham qattig' bo'lur.

Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk...

Hozirda bizga birdan bir iozim bo‘lg‘on narsa - adabiyot, adabiyot, adabiyot...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Cho‘lponning qaysi fikr(lar)i sizni chuqur o‘yga toldirdi? Nima uchun?

2. Cho‘lponning oddiy xabar mazmunidagi so‘zlar bilan badiiy mazmundagi so‘zlar o‘rtasidagi farqni tushuntirish uchun keltirgan misollariga diqqat qiling. Nimalarni ilg‘adingiz? Izohlang.

3. *“Adabiyot yashasa - millat yashar. Adabiyoti o‘limg‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur”*. Ijodkor nega bunday xulosaga kelgan bo‘lishi mumkin? Asoslashga urining.

4. Muallif nima uchun adabiyotni “ko‘ngil tarixining eng qorong‘u xonalarida” yetishgan deb ataydi? Sizningcha, adabiyot inson ichki dunyosining qaysi jihatlarini yoritadi?

5. Cho‘lpon adabiyotni inson ruhining“toza *ma‘rifat suvi*”ga qiyoslaydi. Nega shunday qiyos qilingani haqida fikr yuriting.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Siz adabiyot taraqqiysi uchun qanday takliflar bergan bo‘lardingiz? Nima uchun? Yozma javob tayyorlang.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Alpomish” dostonini o‘qish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni ehtiyojga aylantira olish; badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasvirini anglash, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Har turkiyning o‘z Alpomishi bor. Ildizi bir xalqlar: o‘zbeklarda “Alpomish”, qoraqalpoqlarda “Alpamis”, qozoqlarda “Alpamis batir”, oltoyliklarda “Alip-Manash”, Qozon tatarlarida “Alpamsha”, “Alpamish”, boshqirdlarda “Alpamisha va Barsin hiluu” singari syujeti o‘xshash doston, ertak va rivoyatlar uchraydi.

Doston bizgacha yetib kelishining o‘ziga xos tarbd bor O‘tgan asming boshlarida folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G‘ozi Olim Yunusov o‘zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo‘lib, 1922-yilning yozida Fozil Yoldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilar dandostonni yozib olgan.

“Alpomish” dostonining badiiy jihatdan eng mukammal varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928-yilda Mahmud Zarifbv tomonidan yozib olingan. “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi (1999-yil) munosabati bilan professor T. Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po‘lkan va Ergash

Jumanbulbul o‘g‘liBekmurod Jo‘raboy o‘gli, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarini1999-yilda alohida kitob holda tola nashr ettirdi. T. Mirzayev folklorshunoslik amaliyotida birinchi marotaba “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variant matnini va rus tiliga ilmiy-adabiy tarjimasini akademik nashrga tayyorlab, chop ettirdi. Germaniyaning Bonn universiteti professori Karl Rayxel “Alpomish” dostonini nemis tilida nashr qildirgan. Doston aka-uka - BoyboYi va Boysarining shajarasi, to‘y marosimi va ulaming farzandsizligi muammosi tasviri bilan boshlanadi. Dostonni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida mutolaa qilamiz.

El o‘z armonlariga, asriy dardlariga darmonni so‘zdan izlagan. Baxshilarning tunni tongga ulab aytgan dostonlarida elatning hurlikka, ozodlikka tashnaligi kuylangan, millat va Vatan tuyg‘usi mislsiz shavq bilan badiiy tadqiq etilgan, inson va shaxs erki tushunchalari teran ifodalangan. Dostonlarda, avvalo, kishining o‘z ichidagi yomonlikni yengib, ezgulikka yuz burishi, ezgulik qaror topishi uchun xizmat qilishi asos qilib olingan. Asrlar davomida xalq tilida, ommaga tushunarti qilib aytilgan dostonlar qadimiy tuproqda yashagan har bir inson qalbida aks sado be rib kelganiga tariximiz guvoh. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining ming yillar oldingi madaniyatidan darak beruvchi bebaho merosdir. Doston orqali millatimizning unutilgan yoki unutilib ketayotgan urf-odatlarini, ijtimoiy munosabatlari kechmishi haqida bilib olamiz. Shu ma’noda, “Alpomish”ni nafaqat ulug‘ gbyalarni asrlar osha bizga tashib kelayotgan xalq og‘zaki ijodiyotining betakror namunasi, balki “milliy qadriyatlar qomusi” sifatida e’tirofetish mumkin.



Alpomish.
O‘zbekiston xalq rassomi, akademik
Javlon Umarbekov illyustratsiyasi.
2010-yil

Alpomishning qaytishi

Bepoyon dalada bir botir uxlar,
Sochlari chatishib ketgan giyohga.
Qay sado botirni yana qaytarar
Bu ko‘hna, bu soqov, bu kar dunyoga?
...Chollar qayg‘uradi: “Kim uyg‘otar, kirm?”
Kampirlar yig‘laydi: “Uyg‘onmas mangu!”

Shamollar guvullab o‘tar betinim.
Boshida bulutlar qotgan beuyqu.
Xira ko‘zlarini uzmay ufqdan
Donishmand cholgina yo‘lga termilar
Va aylar bashorat: “Uni uyqudan
Uyg‘ota oladi faqat bolalar”.

Xurshid Davron



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Xurshid Davronning “Alpomishning qaytishi” she’rida uxlab yotgan Alpomishni faqatgina bolalar uyg‘ota olishi bashorat qilinadi. Nega? Botirni qanday bolalar uyg‘ota oladi deb o‘ylaysiz? She’rdagi ramziy mazmuni tahlil qiling.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

52 listdan iborat adabiyot fanidan 9-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**